

**ODDIY SO‘ZLASHUV TILI  
SIMPLE COLLOQUIAL LANGUAGE**

*Qudratova Sayyora Ziyadulla qizi*

*O‘z FA O‘zbek tili, adabiyoti va  
folklori instituti kichik ilmiy xodim  
sayyoraqudratova18@gmail.com*

*Tel: +998919039601*

**Annotatsiya.** Oddiy so‘zlashuv tili kundalik muloqotda keng qo‘llaniladigan, ko‘pchilik tomonidan qabul qilingan til ko‘rishi hisoblanadi. Ushbu maqolada so‘zlashuv tili tushunchasining kelib chiqishi, jamiyatdagi o‘rni, muloqot jarayonidagi o‘ziga xos xususiyatlari ochib berilgan. Oddiy so‘zlashuv tilining adabiy tildan farqli tomonlari haqida fikr-mulohazalar bildirilgan.

**Annotation.** A common colloquial language is a widely used language vision in everyday communication, adopted on the majority side. This article reveals the origin of the concept of colloquial language, its place in society, its peculiarities in the process of communication. Opinions have been made on the differences of the ordinary colloquial language from the literary language.

**Kalit so‘zlar:** so‘zlashuv tili, dialekt, adabiy til, og‘zaki nutq, kundalik muloqot tili, oddiy so‘zlashuv tili.

**Keywords:** colloquial language, dialect, literary language, spoken speech, language of everyday communication, simple colloquial language.

So‘zlashuv tili – bu ma’lum bir hududda yashovchi kishilar tomonidan ishlatiladigan kundalik til. So‘zlashuv so‘zi lotincha “colloquium” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “birgalikda gaplashish” yoki “suhbat” degan ma’noni anglatadi [1;13]. So‘zlashuv tili shaxsning oila a‘zolari, qo‘ni-qo‘shnilari hamda yaqin qarindoshlari bilan bo‘lgan muloqotida namoyon bo‘ladi.

So‘zlashuv tili haqida o‘zbek tilshunosligida bir qancha fikrlar ilgari surilgan. Xususan, A.Abduaidov: “So‘zlashuv tili dialogik nutqdagi dialektal so‘z, jargon va vulgar so‘zlarni qo‘shib gapirish” [2;82] dir deb ta’kidlagan bo‘lsa, rus va o‘zbek tilshunosligida so‘zlashuv tili masalasini o‘rgangan tilshunos B.O‘rinboyev so‘zlashuv tilini “yozma nutq va dialekt o‘rtasidagi oraliq shakl” deb ataydi [3;14]. So‘zlashuv tili og‘zaki shaklda yuzaga keladi va yozma nutqdan quyidagi o‘ziga xos xususiyatlar bilan farqlanadi: “So‘zlashuv tili yozma nutq formasi bilan umumiy asosga ega bo‘lsa-da, to‘g‘ridan-to‘g‘ri tinglovchiga yoki eshituvchiga qaratilganligi, ishlanmaganligi, silliqatlanmaganligi, talaffuz normasi va sotsial munosabat, ijtimoiy sharoit hamda iqtisodiy taraflama farqlanadi” [3;13].

So‘zlashuv tili ko‘p yillar mobaynida bir qancha tilshunoslarni qiziqtirib kelgan munozarali mavzu bo‘lsa-da, bugungi kunda ham uning o‘ziga xos xususiyatlari va ijtimoiy ahamiyati haqida aniq xulosalar berilmagan. Tilshunos T.Vinokur ham buni alohida ta’kidlab, “so‘zlashuv tili tushunchasi hali yetarli aniqlanmagan, belgilanmagan”– deya fikr bildiradi [4;20]. O‘zbek tilida ham bir qancha manbalarda so‘zlashuv tili tushunchasini ifodalash jarayonida turli terminlardan foydalanilganligini ko‘rishimiz mumkin. Masalan, bu haqida B.O‘rinboyev shunday fikr bildirgan: “So‘zlashuv tili haqida gap ketar ekan, jonli xalq tili, xalq og‘zaki tili, sodda til, jonli so‘zlashuv tili, so‘zlashuv tili kabi iboralar qo‘llanib turadi. Lekin bu iboralar bilan parallel holda nutqning so‘zlashuv shakli, og‘zaki nutq, oddiy so‘zlashuv nutqi, adabiy so‘zlashuv nutqi, kundalik so‘zlashuv nutqi kabi turli-tuman terminlarga duch kelamiz” [3;6]. Keltirilgan terminlar ichki tuzilishi va o‘ziga xos xususiyatlari bir biridan farqlanadi.

E.D.Polivanov og‘zaki nutqni til jamoasi tarkibiga ko‘ra dialekt, oddiy so‘zlashuv tili va adabiy so‘zlashuv tili kabi uch turga [5;11], o‘zbek tilshunosligida A.Muxtorov va U.Sanaqulovlar [6;9] jonli xalq tilini jargon, dialekt va oddiy so‘zlashuv tili singari turlarga ajratib o‘rganishlar olib borganlar. So‘zlashuv tili adabiy tildan kengroq tushunchani qamrab oladi.

Shu boisdan, odamlar orasida kundalik muloqotda ishlatiladigan, ko‘pchilik tomonidan qabul qilingan til oddiy so‘zlashuv tili hisoblanadi. Bu tildan foydalanuvchilar soni yuqori bo‘lishidan qat’iy nazar standart til hisoblanmaydi. D.N.Shmelev “Shahar so‘zlashuv tili” to‘plamining so‘zboshida: “Oddiy so‘zlashuv tili muammosi bugungi kungacha kam o‘rganilgan”ligi haqida yozadi [7;53]. O‘zbek tilida oddiy so‘zlashuv tili rus tilidagi prostoreche so‘zining tarjimasini hisoblansa-da, rus tilida prostoreche so‘zi milliy til tushunchasini ifodalaydi. Shu boisdan fransuz tilidagi “langue populaire” – “ommaviy nutq” yoki ingliz tilidagi “nonstandard and illiterate speech” – “nostandart va savodsiz nutq” terminlari ijtimoiy jihatdan rus tilidagi prostoreche terminiga mos kelmaydi.

Oddiy so‘zlashuv tili hozirgi sinxron sotsiolingvistika nuqtai nazaridan ko‘p ma’noli atamadir. U quyidagi ma’nolarda qo‘llaniladi [8;48]:

1. Umumxalq nutqning noadabiy so‘zlashuv shakli
2. Umumxalq adabiy tilining “kamsitilgan”, qo‘pol unsurli tarkibi (yoki adabiy so‘zlashuvning oddiy shakli)

Yuqorida keltirilgan ma’nolarga ko‘ra oddiy so‘zlashuv tilida suhbatlashuvchilar nutqida imo-ishoralar, to‘liqsiz gaplar, qo‘pol so‘zlarni faol qo‘llanishini kuzatishimiz mumkin.

Oddiy so‘zlashuv tili ijtimoiy jihatdan milliy tilning quyi tizimi hisoblanib, muayyan ijtimoiy doiralardagina ona tilida so‘zlashuvchilar, adabiy til me’yorlarini bilmaydigan “oddiy odamlar”ning nutqi sifatida tushuniladi [9;60]. Adabiy til

me'yorlarini bilmaydigan so'zlovchilarning nutqida adabiy tilga xos bo'lgan unsurlar deyarli uchramaydi. Chunki adabiy til so'zlari adabiy so'zlashuv tili bazasi hisoblanadi va ko'proq rasmiy doiralarda amal qiladi. Oddiy so'zlashuv tili norasmiy doiralarda keng qo'llaniladi va ijtimoiy jihatdan imkoniyati chegaralangan til ko'rinishi hisoblanib, adabiy til normalariga mos kelmaydi. Shunga ko'ra oddiy so'zlashuv tili va adabiy til o'rtasidagi tafovutlarni aniq ko'rsatib o'tish lozim bo'ladi. O'z navbatida oddiy so'zlashuv tilining quyidagicha o'ziga xos belgilari mavjud [10;23]:

- 1) ishlanmaganlik (neytral ma'no);
- 2) uslubiy bo'yoqqa ega emaslik, ya'ni uslubiy ma'no ifoda etmaslik;
- 3) ma'lum bir tilda so'zlashuvchi jamoaning hammasi uchun umumiylik va majburiylikka ega emaslik;
- 4) yozma shaklga ega emaslik;
- 5) ko'p ma'nolilik vazifasini bajarmaslik, sinonim va variant usullariga ega emaslik.

Adabiy til va oddiy so'zlashuv tili tushunchalari norma jihatidan farqlansa-da, bir biridan butunlay farqlanuvchi tushunchalar emas. Balki, oddiy so'zlashuv tili adabiy tilni to'ldirib boruvchi asosiy vositalardan biri hisoblanadi.

Shu bilan birga, bir necha manbalarda oddiy so'zlashuv tili bir tomondan og'zaki adabiy nutqqa, bir tomondan hududiy lahjalarga zid qo'yiladi [8;48]. Chunki oddiy so'zlashuv tili adabiy til me'yorlariga amal qilmaydi va hududiy dialektlarga nisbatan kengroq hududga tarqalgan.

Hozirgi sotsiolingvistlar oddiy so'zlashuv tilining quyidagi ikki turi mavjud ekanligini ta'kidlashadi [11;56]:

1. Nutqida dialekt va yarim dialektlardan faol foydalanadigan ma'lumotsiz yoki boshlang'ich ma'lumotga ega bo'lgan keksa yoshli aholining tili.

2. Adabiy til normalarini bilmaydigan, nutqida dialekt uchramaydigan asosan jargonlashgan, o'rta ma'lumotga ega bo'lgan yosh va o'rta yoshli aholining tili

Yuqorida keltirilgan ikki tur sotsial hamda o'ziga xos xususiyatlari bilan farqlanadi. Birinchi tur yosh va jins jihatidan asosan keksa yoshdagi ayollarni qamrab oladi. Shuningdek uning o'ziga xos xususiyati adabiy til va hududiy dialekt o'rtasidagi shakl ekanligi, faol imo-ishoralardan foydalanishi va nutq hajmi jihatidan adabiy tilda so'zlashuvchilardan farqlanib turishi hisoblanadi. Ikkinchi tur esa o'smir va o'rta yoshda bo'lgan erkaklarni qamrab oladi. O'ziga xos xususiyati professional jargon va adabiy til o'rtasidagi o'rinni egallashidir.

Oddiy so'zlashuv tilida so'zlovchi o'z fikrini erkin bayon eta oladi. So'zlovchi nutqida beixtoyoy so'znini tejash yoki ortiqcha so'z qo'llash holatlari kuzatiladi. Oddiy so'zlashuv nutqi dialektal nutqni ham aks ettiradi. So'zlovchi qaysi dialekt vakili bo'lsa, shu dialektda gapirishi mumkin. Masalan, shi, mashi, qaydam, qaytayin, shulaymi, jaa, bo'пти kabilar oddiy so'zlashuv tiliga xos [12;12]. Nutqdagi dialektal

birliklar ijtimoiy holatni ham aks ettirishi mumkin. So‘zlashuv nutqida ona tilidagi bor imkoniyatlardan foydalanilsa ham, har bir soha, kasb, guruh kishilarining nutqida o‘ziga xoslik seziladi: olimlarning suhbatini bilan ishchi, xizmatchi, dehqonning so‘zlashuvida farq bo‘ladi. Hatto erkak-u ayollar so‘zlashuvi o‘rtasida ham ba’zi farqli jihatlar kuzatiladi. Ayollar suhbatiga: voy o‘lay, voy sho‘rim, voy o‘lmasam, girgitton bo‘lay, aylanay, o‘rgilay kabi iboralar xos bo‘ladi. Jonli nutq jarayonida uslubiy bo‘yoq iboralaridan keng foydalaniladi, bu nutqda “xom” ibora va gaplar, qo‘pol so‘zlar ham uchraydi [13;90]. Oddiy so‘zlashuv tili erkin muloqot ko‘rinishida yuzaga chiqadi. So‘zlashuvchilar nutqi shevalarga boy, sodda va hammaga tushunarli bo‘lishi bilan farqlanib turadi.

Xulosa qilib aytganda, kundalik hayotimizning asosiy vositalardan biri bo‘lgan oddiy so‘zlashuv tili bugungi kungacha ko‘p va xo‘p o‘rganilgan munozarali mavzulardan biri bo‘lib, hozirda ham bir qancha izlanishlar olib borilmoqda.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Bandov F. Anglicisms In The Russian Language: colloquialisms and linguistic purism in the Russian language. Diplomski rad. – Zadar, 2017.
2. Abdusaidov A. Nutq mahorati. – Samarqand, 2016.
3. O‘rinboyev B. O‘zbek tili so‘zlashuv nutqi sintaksisi masalalari. –Toshkent, 1974.
4. Винокур Т. К характеристике понятия “разговорная речь”, жур. “Русский язык в национальной школе”. – № 2.– 1965.
5. Городское просторечие: Проблемы изучения. – Москва, 1984.
6. Muxtorov A., Sanaqulov U. O‘zbek adabiy tili tarixi. – Toshkent, 1995.
7. Крысин Л.П. Социоллингвистические аспекты изучения современного русского языка. – Москва, 1989.
8. Verdialiyev A. O‘zbek sinxron sotsiolingvistikasi. – Toshkent, 2019.
9. Баранникова Л. И. Просторечие и литературная разговорная речь // Язык и общество. – Саратов, 1977.
10. Normurodov R. Sotsiolingvistika. – Termiz, 2008.
11. Крысин Л.П. Социоллингвистические аспекты изучения современного русского языка. – Москва, 1989.
12. Sultonsaidova S., Sharipova O‘. O‘zbek Tili Stilistikasi. – Toshkent, 2009.
13. Abdurahmanova M., Fattoxova D., Xalmuxamedova U., Inogamova N., Egamberdiyeva N. O‘zbek Tili. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2018.